DARSLARDA INTERFAOL USULLARGA ASOSLANGAN MASHG‘ULOT VA TEXNOLOGIYALARNING TALABALAR AQLIY QOBILIYATLARI RIVOJIGA TA‘SIRI

Mustafoqulova Feruza Inomovna, Jizzax politexnika instituti Xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail:feruza.mustafokulova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada turli chet tillarini o‘rgatishda interfaol usullardan foydalanish mavzusi muhokama qilinadi. Bunda hamisha interfaol usullar bilan birga qo‘llanib kelingan an’anaviy o‘qitish usullari solishtirilib, aniq kuzatishlar asosida yakuniy natijaga oid xulosalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: interfaol usullar, kommunikativ muloqot, an‘anaviy dars, zamonaviy texnologiya.

ВЛИЯНИЕ ОБУЧЕНИЯ И ТЕХНОЛОГИЙ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ЗАНЯТИЯХ НА РАЗВИТИЕ УМСТВЕННЫХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье рассматривается тема использования интерактивных методов в обучении различным иностранным языкам. При этом сравниваются традиционные методы обучения, которые всегда используются вместе с интерактивными методами, и на основе конкретных наблюдений делаются выводы о конечном результате.

Ключевые слова: интерактивные методы, коммуникативный аспект, традиционный урок, современные технологии.

THE EFFECT OF TRAINING AND TECHNOLOGIES BASED ON INTERACTIVE METHODS IN CLASSES ON THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' MENTAL SKILLS

Abstract. This article discusses the importance of using interactive methods and educational materials in teaching different foreign languages. In this, traditional teaching methods, which have always been used together with interactive methods, are compared, and conclusions of the final result are given based on specific observations.

Keywords: interactive methods, communicative light, traditional lesson, modern technology.

Kirish. Hozirgi kunda chet tillarini o‘rgatish va o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-

tadbirlar ham xorijiy tillarni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Unga ko‘ra, kollej, litsey, oliy o‘quv yurtlari va maktablarda rus tili bilan bir qatorda ingliz, nemis, fransuz kabi tillar ham o‘qitilib, Yevropa talablari asosida ko‘nikma va malakalarni baholash usullari ishlab chiqildi. Bizga ma’lumki, har qanday chet tili fanlari to‘rtta muhim jihatga (tinglash, o‘qish, yozish va gapirish) bo‘linadi. Har bir jabhada maxsus ko‘nikma va tushunchalar berish jarayonida ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish ta’lim sifati va samaradorligini oshirish demakdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shuni ta’kidlash kerakki, interaktiv o‘qitish usullari 1970-yillardan, ya’ni texnologiyalar hayotimizda ajralmas o‘rin egallay boshlagandan buyon o‘rganilib kelinmoqda, ayniqsa, bu izlanishlar 1980-yillardan muvaffaqiyat cho‘qqisiga chiqqan. Chet el olimlari orasida G. Lozanov, Yu. Shexter, A. Shuxin, O. Balansiyeva, Olga M. Trubitsyna, Olena I. Mamonova, T. Polza kabilar ilmiy ish darajasida o‘rganishgan. Bolgar professori G. Lozanov, tilshunos olimlar va psixolingvistlarning intensiv usullarini ishlab chiqdilar. Quyida chet tillarini o‘rgatishning shu usullarini keltirib o‘tamiz [2, 28-b]:

– emotsional-semantik (o‘quvchilarning ichki imkoniyatlaridan foydalanish usuli) usuli;

– katta yoshdagi o‘quvchilarni o‘qitishning tizimli usuli.

Tadqiqot metodologiyasi. Darslarni tashkil etish shakli, maxsus usuli, materia bilan tanishtirish, nutqni shakllantirish va talabalarning kommunikativ qobiliyatlari o‘sishiga o‘qitish jarayonining interaktivligi tufayli erishiladi.

Xususan, chet tillarini o‘rganish va o‘qitishda bunday kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning bir qancha muhim afzalliklari bor. Hozirda IELTS, TOEFL, Goethe Sertifikat kabi chet tilini bilish darajasini baholash testlari ishlab chiqilgan. Bu jarayonlarda texnologik vositalardan foydalanish chet tilining har bir jabhasini o‘rgatishda noan’anaviy va interfaol vazifalar kabi zamonaviy yondashuvlar bilan birga keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun turli qurilmalar, pleyerlar, kompakt disklarsiz tasavvur qilish qiyin. Shu sababdan zamonaviy texnologiya va usullardan foydalanish zarur. Ushbu texnik vositalardan foydalanish chet tilini o‘rganish jarayonini o‘quvchilar uchun qiziqarli va samarali qiladi, bundan tashqari, harakatli o‘yinlar yordamida dars davomida o‘quvchilar diqqatini bir joyga jamlaydi.

Interfaol usul – ta’lim jarayonida o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirishning eng maqbul yo‘lidir. O‘quvchilarning bilim olishini faollashtirish, ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Interfaol ta‘limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin ifodalash va undan foydalanish imkoniyati, ekspozitsiyalar soni kam, lekin seminarlar soni ko‘p, talabalarning tashabbuskorligi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash, yozma ishlarni bajarish va boshqa usullardan iborat bo‘lib, ular tarbiyaviy ish samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda til o‘rganish va o‘qitishni kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchi hozirda

barcha ma’lumotlarni tushuntirib, an’anaviy tarzda dars tashkil etmaydi, faqat o‘quvchilarga mustaqil izlanishga ko‘rsatma beradi va tushuntiradi. Buning uchun o‘quv jarayonida noodatiy innovatsion interaktiv topshiriqlar tizimi va darsni tashkil etish talab etiladi. Hozirgi vaqtda har bir o‘qituvchi darsda induktiv o‘qitish usulidan foydalanishni afzal ko‘radi. Bunda asosiy mavzuni o‘quvchiga tanishtirishdan oldin mavzuga oid turli ko‘rgazmali materiallar talabaga taqdim etiladi. Keyin o‘ylantiruvchi savollar beriladi. Bu talaba savollarga javob topishni intiqlik bilan kutayotgan bir paytda, unga kontekstlar sekin-asta tanishtiriladi. Bu usul o‘qitish jarayonini tushuntirish, oydinlashtirish va asoslashga yo‘l ochadi. Endi o‘quvchi o‘z olgan bilimlarini tahlil qilib, tushuna boshlaydi. U oldingi bilimlari bilan bog‘lanish va farqlarni ajrata oladi. Umumiy o‘qitish jarayonida o‘quvchi ijodiy ish bajaradi. Olingan barcha bilimlardan foydalanib, u tajriba o‘tkazish uchun o‘z rejasini tuzadi. O‘quvchi xohlaydimi yoki yo‘qmi, biladimi yoki yo‘qmi mavzuga qiziqishini ko‘rishimiz mumkin. Albatta, interfaol mashg‘ulotlarni o‘tkazishda interfaol usulni to‘g‘ri tanlashni bilish kerak. Bunda o‘quvchining yoshi, bilim darajasi va muhitini hisobga olish zarur.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda qadimdan rivojlangan interfaol usullardan foydalaniladi. Xuddi shunday uslublarni turli she’riyat kechalari, bahs-munozaralarida ham ko‘rishimiz mumkin. Bu usullar o‘quvchilarning tafakkuri, aql-zakovati, tafakkuri, iqtidori va nutqini rivojlantirib, ularni mustaqil, barkamol qiladi va komil inson bo‘lib shakllanishiga xizmat qilib keladi.

Ko‘rinib turibdiki, interfaol metodning asosiy maqsadi ta’lim jarayonlarida ta’lim sifatini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali o‘quvchining faol fikrlashi uchun erkin muhit yaratishdir. U o‘zining potentsial imkoniyatlari va aqliy salohiyatini namoyon etib, ta’lim samaradorligi va sifatini oshirishga yordam beradi. Darslar interfaollik asosida shunday tashkil etilganki, dars davomida hech bir talaba chetda qolmaydi. Har bir inson o‘z fikri va bilimini ochiq va ikkilanmasdan ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki interfaol usullarda asosiy e’tibor nafaqat o‘rgatish va bilim berishga, balki fikri to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishidan qat’iynazar, fikrlashga undashga ham qaratiladi. Har xil interfaol usullar mavjud va ularning barchasi har qanday progressiv metodlar kabi, birinchi navbatda, mashg‘ulot oldidan o‘qituvchidan katta tayyorgarlikni talab qiladi.

Dars jarayonini oqilona tashkil etishda o‘quvchilarni rag‘batlantirish, turli kichik materiallardan foydalanish, mavzu bo‘yicha savol-javoblar berish orqali aqliy hujum tashkil etish, muammoli vaziyatlar berish, o‘z ustida ishlashga o‘rgatish, bahs-munozaralar o‘tkazish, kichik guruhlarda ishlash kabi usullar juda muhimdir. Ta’lim jarayonlariga interfaol usullarni to‘liq tatbiq etish borasida shuni ta’kidlash joizki, zamonamiz yoshlari o‘tmishdagi ajdodlarimizdan zamonaviy qarashlari va ayniqsa, ilg‘or raqamli texnologiyalardan foydalanish qobiliyati bilan ajralib turadi. Hozirda bunday kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, nafaqat qiziqarli interaktiv o‘yinlardan foydalanish, balki puxta va aqlli ta’lim berish ham davrning dolzarb muammosiga aylanib bormoqda. Binobarin, kelajak avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalash uchun kuchli mezon, mehnatsevarlik, epchillik va puxta rejalashtirish talab etiladi. O‘qitish jarayonida biryoqlama yondashuvsiz turli xil an’anaviy va

zamonaviy metodlarni uyg‘unlashtirib qo‘llash katta rol o‘ynaydi. Bunda o‘qituvchi mavzuga turlicha yondashuvlar asosida mavzu beradi va berilgan bilimlarni boshqa interfaol o‘yinlar yordamida mustahkamlaydi. Dars oxirida mustaqil ishlashlari uchun loyihalar yoki turli muammoli vaziyatlarni taqdim etadi. Quyidagi jadvalda zamonaviy interfaol usullar bilan ishlashning dars jarayonidagi tarkibiy qismlari keltiriladi:

Jadval 1.

Interfaol usullar bilan ishlashning dars jarayonidagi tarkibiy qismlari

Kirish	Qo‘shiqlar, raqslar
Yangi mavzuni tushuntirish	mavzuga oid turli ko‘rgazmali materiallar talabaga taqdim etiladi. Keyin o‘ylantiruvchi savollar beriladi. Bu talaba savollarga javob topishni intiqlik bilan kutayotgan bir paytda, unga kontekstlar sekin-asta tanishtiriladi
Mavzuni mustahkamlash	Rag‘batlantiruvchi mashqlar, videodarslar, audioyozuvlar, rasmli boshqotirmalar
Mustaqil ish	Loyihalar yoki turli muammoli vaziyatlarni taqdim etish
Uyga vazifa berish	O‘rganilayotgan chet tilida lug‘at boyligini oshirishga xizmat qiluvchi topshiriqlarning mavzuga oid tizimli to‘plamlaridan foydalanish

Yuqoridagi jadval asosida Jizzax politexnika institutining turli fakultetlari talabalari orasida xorijiy tili sifatida nemis tili o‘qitiladigan guruhlar tanlab olinib, ularga “Aqliy hujum”, “Munozara”, “Klaster”, “Baliq skeleti”, “Debat”, “Aylana stol” kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida mashg‘ulotlar tashkil etildi. Tajriba o‘quv rejasida xorijiy til uchun umumiy 60 soat ajratilgan guruhlarda amalga oshirildi. Bunda sinov uchun ajratilgan umumiy amaliy dars soatlari, ya’ni 30 soatning yarmi an’anaviy dars mashg‘uloti shaklida, qolgan yarmi interaktiv usullar asosida tashkil qilindi. Natijalar esa kutilganidek: noan’anaviy mashg‘ulotlarda qatnashgan talabalar dars nihoyasiga yetishini xohlashmadi, dars markazida o‘qituvchi emas, talabalar faolligi kuzatildi, dars nihoyasida talaba va o‘qituvchi orasidagi chegara uzoqlashib, talaba o‘zini qiziqtirgan savollarni bemalol so‘ray olganligi interfaol usullarga asoslangan mashg‘ulotning talabalar aqliy savodxonligiga juda ijobiy ta’sir etganligiga guvoh bo‘lindi.

Xulosa va takliflar. Albatta, loyiha ustida ishlash ularning ijodiy fikrlashini va yangi narsalarni yaratishga ishtiyoqini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, chet tili o‘qitish jarayonlarida innovatsion usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning nutqi ravon bo‘ladi, aqliy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, to‘g‘ri va tezkor javob berish ko‘nikmalari shakllanadi. Bunday interfaol usullar talaba va yoshlarning bilim olishga intilishini oshirish bilan birga, psixologik jihatdan ham rag‘batlantiradi.

Natijada o‘quvchilar dars jarayoniga puxta tayyorgarlik ko‘rish, ta’lim sifatini oshirishga kirishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan olib borish” mavzusida murojaat. – Toshkent, 2012 yil.
2. Xatamova N. Q., Mirzayeva M. N.. “Ingliz tili darslarida qo‘llanmagan interfaol usullar” (uslubiy qo‘llanma), – Navoiy, 2006, 40-b.
3. Hoshimov O‘., Yoqubov I. “Ingliz tili o‘qitish metodikasi” (o‘quv qo‘llanma) – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003 Muminov F. M. Mo‘minova. – Tekst: neposredstvennyy // Molodoy uchenyy. 2020. – № 18 (308). – S. 590-592 – URL: https://moluch.ru/archive/308/69404/ (ma’lumotlar manzili: 20.01.2022)
4. Otaboeva M. R. Chet tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan yuklash va uni olib borish / M. R. Otaboeva. – Tekst: neposredstvennyy, elektronnyy // Molodoy uchenyy. – № 109 4.2 (138.2). 2017. – S. 36-37. – URL manzili: https://moluch.ru/archive/138/39058/
5. Мамаризаева Ф. Литеральный перевод – средство литерального общения и взаимодействия. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 6(3), 2022. – С. 50–55. https://www.scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/78